



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 13-fevral

№ 1992

O‘zbekiston Respublikasi ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 69-72-moddalari va “O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to‘g‘risida”gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq:

Abdurazzakov Abdusattor Azamatovich – sudyalik vakolati muddati davriga Jizzax viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Jomboy tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Botirov Jamshid Xayriddinovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Jomboy tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Paxtachi tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Xolboyev Alisher Raxmatovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Paxtachi tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Samarqand viloyat sudining jinoyat ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Eronqulov Otabek Mamayusufovich – sudyalik vakolati muddati davriga Namangan viloyati jinoyat ishlari bo‘yicha Namangan shahar sudining tergov sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Surxondaryo viloyat ma‘muriy sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Raximov Anvar Matyakubovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Xorazm viloyati fuqarolik ishlari bo‘yicha Shovot tumanlararo sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Xorazm viloyat sudining fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov